

Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi hamda Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutlariga fizika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Dsc) ilmiy darajalarini berish vakolati taqdim etildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son (19.03.2021-y.) qarori qabul qilindi.

Qaror bilan 2021–2023 yillarda fizika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti va Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutiga fizika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (Dsc) ilmiy darajalarini berish vakolati taqdim etildi.

Shuningdek, Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti tuzilmasida elektrotexnika sohasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini o'rganish va mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan saqlanadigan tajriba ishlab chiqarish va konstruktorlik byurosi hamda Fanlar akademiyasi tizimiga kiruvchi fizika yo'nalishidagi ilmiy tashkilotlarda ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan marketing va tijoratlashtirish bo'limlari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, Qarorga ko'ra, 2021-yil 1-sentyabrdan:

- Oliy ta'lim muassasalarining "Fizika", "Fizika va astronomiya", "Biotibbiyot fizikasi" kabi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari o'rtasida o'tkaziladigan respublika fan olimpiadasi g'oliblari va fizika bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlari fizika mutaxassisliklari bo'yicha qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida magistraturaga o'qishga qabul qilinadi;

- fizika fanlari bo'yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarga oylik maoshining 100 foizi miqdorida bir martalik pul mukofoti;

- fizika fanlari bo'yicha talabalar uchun to'garaklar olib borayotgan professor-o'qituvchilarning oylik maoshlariga 25 foiz miqdorida har oy ustama haq to'lanadi.

Shuningdek, 2022–2024 yillarda jami 21 ta oliy ta'lim muassasalarining fizika fani bo'yicha o'quv laboratoriyalari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanadi.

2021/2022 o'quv yilidan oliy ta'lim tizimida fizika fanlari sohalarga moslashtirilgan holda o'qitiladi.

2021-yil 1-noyabrgacha yoshlar o'rtasida fizika fanlariga qiziqishni oshirish maqsadida "Yosh fiziklar portali" ishga tushiriladi.